Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi M.S.Vosiqova nomidagi akademik litseyda “Korrupsiyaga qarshi kurash: qonunchilik va amaliyot” mavzusida tashkil etilgan seminar
BAYONNOMASI

2026-yil 27-mart Toshkent shahri

Ishtirok etdilar: TDYU huzuridagi M.S.Vosiqova nomidagi akademik litsey direktori Abdurashid Abdulxayevich Pirnazarov, TDYU Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘limi boshlig‘i Abdusattorov Ilxomjon Erkinjonovich, TDYU 3-kurs talabalari Kurganbaev Boburjon, Baxtiyorov Shoxruxbek akademik litsey pedagog-xodimlari, o‘quvchi-yoshlar.

“Korrupsiyaga qarshi kurash: qonunchilik va amaliyot” mavzusida bo‘lib o‘tgan seminar haqida

Raislik etuvchi TDYU huzuridagi M.S.Vosiqova nomidagi akademik litsey direktori A.Pirnazarov tadbirni ochib berdi. Korrupsiya — davlat boshqaruvi va jamiyat rivojiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi illatlardan biri ekanligi, u iqtisodiy o‘sishni sekinlashtirishi, fuqarolarning davlatga bo‘lgan ishonchini kamaytirishi hamda ijtimoiy adolatsizlikni kuchaytirishi haqida so‘zlab, TDYU Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘limi boshlig‘i Abdusattorov Ilxomjon Erkinjonovichga so‘z navbatini berdi.

Ilxomjon Abdusattorov o‘z nutqida O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida bir qator qonun va normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinganligi, jumladan, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun korrupsiyaning oldini olish, uni aniqlash va unga chek qo‘yishning huquqiy asoslarini belgilashi haqida o‘z fikrlarini bildirib o‘tdi.

Shuningdek, manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish mexanizmlari ishlab chiqilganligi, ochiqlik va shaffoflikni ta’minlashga qaratilgan elektron hukumat tizimlari kengaytirilayotganligi haqida so‘zlab, korrupsiyaning jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta’siri, unga qarshi kurashishning huquqiy asoslari, mamlakatimizda bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar haqida atroflicha ma’lumotlar berdi. Ayniqsa,

yoshlarda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, halollik va adolat tamoyillarini hayotiy qadriyat sifatida qaror toptirish zarurligini alohida ta’kidladi.

TDYU 3-kurs talabalari — Qurbonbayev Boburjon va Baxtiyorov Shohruhbeklar taqdimot namoyishi orqali o‘z ma’ruzalari bilan ishtirok etdilar.

Shuningdek, o‘quvchilarga kundalik hayotda uchrashi mumkin bo‘lgan korrupsion holatlar, ularning oldini olish yo‘llari va bunday vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berildi. Interaktiv savol-javoblar orqali o‘quvchilar o‘zlarini qiziqtirgan savollarga batafsil javob oldilar.

Mazkur seminar o‘quvchilarda huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirish, ularni halol va mas’uliyatli fuqaro etib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish — uzluksiz va tizimli jarayon bo‘lib, u faqatgina qonunchilik bilan emas, balki jamiyatning barcha qatlamlari ishtirokida samarali amalga oshiriladi. Qonun ustuvorligi, ochiqlik va jamoatchilik nazorati kuchaygan sari korrupsiya darajasi kamayib boradi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda qonunchilik bazasi mustahkamlanmoqda, institutsional tizim rivojlanmoqda va amaliy choralar kengaymoqda. Shu bilan birga, muammolarni bartaraf etish uchun kompleks yondashuv va jamoatchilik ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunday uchrashuvlar yoshlarning ongida korrupsiyaga qarshi kurashish mas’uliyatini yanada mustahkamlab, ularni kelajakda vijdonli va adolatparvar mutaxassislar bo‘lib yetishishlariga xizmat qiladi.

O‘quvchilar bilan savol-javoblar o‘tkazildi, ular o‘zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldilar.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davra suhbatlari, seminar va uchrashuvlarni tizimli davom ettirish, o‘quvchi-yoshlar bilan suhbatlar o‘tkazish, korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan treninglarni muntazam tashkil etish bo‘yicha ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni kuchaytirish yuzasidan takliflar berildi.

Tadbir belgilangan tartibda yuqori saviyada o‘tkazildi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib,

QAROR QILINDI:

1. TDYU Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘limi boshlig‘i I.Abdusattorovning ma’ruzasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Akademik liseyda Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davra suhbatlari, seminar va uchrashuvlar tizimli davom ettirilsin.

3. O‘quvchi-yoshlar bilan suhbatlar, korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan treninglar muntazam tashkil etib borilsin.

Seminardan fotolavhalar:






O'ZBEKISTON
STRATEGIYASI
2030
O'ZBEKISTON
STRATEGIYASI 2030




O'ZBEKISTON STRATEGIYASI 2030
O'ZBEKISTON STRATEGIYASI 2030


@TIUL_ANTICORDOT
@TIUL_ANONIMBOT
@TIULANTICOR
"Телефон доверия": +998 71 233-42-09